

SHAVKAT RAHMON LIRIKASIDA JADIDLARGA ERGASHISH

Gulasal Kurbanova Dilshodbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining

Filologiya va san'at fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Xalq shoiri Shavkat Rahmonning ijod yo‘li, shoirning o‘ziga xos badiiy mahorati, shoirdagi o‘z zamonasi bilan murosasizlik, she’rlarida jadidchilik g‘oyalaring ilgari surilganligi, shoir she’rlarida jadidlarga ergashish, uning ijodida millatni uyg‘otishga da’vat. She’rlaridagi o‘ziga xos shakl va mazmun. She’riyatidagi badiiy san’atlar hamda shoirning o‘ziga xos qarashlari bayon qilinadi.

Kalit so’zlar: Tazod, tanosub, band, bayt, badiiy san’at, turoq, qofiya, shakl, mazmun, qo’shimcha, mutloq qofiya, barmoq vazni, da’vat, hurlik, mustaqillik, madh, undash.

Barchamizga ma’lumki, shoirlar jahonda juda ko‘p, oddiy mamlakatimiz yoki qishlog‘imizda ham. Ammo ularning hammasini ham chin ma’noda shoir deyish qiyin. Sababi shundaki, ularning barchasi ham qalbning asl tubidan va bir umrga joy olavermaydi, qo‘lidan kelmaydi, agar ich-ichidan chiqarib, qalbdan yozmasa, albatta. O‘tkan asrning so‘nggi 80-yillarda yuzaga chiqqan o‘zbek adabiyoti namoyondalari anchagina, xususan, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Rauf Parfi, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Faxriyor, Azim Suyun, Bahrom Ro‘zimuhammad, Iqbol Mirzo singari shoirlar. Ammo ushbu qatorda bir shoirning nomini alohida takidlamaslikning iloji yo‘q. Xuddi shunday, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos ovozi va ijod olami bilan alohida o‘rin tutgan, chin insoniy, ulug‘vor tuyg‘ularni madh etgan zabardast shoirlardan biri bu Shavkat Rahmondir. U XX asr o‘zbek adabiyotini o‘zining jo‘shqin va betakror she’rlari bilan bezagan millatparvar shoirdir. Shavkat Rahmon hayoti qisqa davom etgan bo‘lsada, o‘zbek she’riyatida o‘chmas iz qoldira oldi. Shavkat Rahmonning qalamiga mansub she’rlarni o‘qir ekanmiz, uning chuqur dard ila bitgan har bir misrasida millat hayoti va davr qiyinchiliklari tasvirlanganini guvohi bo’lamiz. Shavkat Rahmonning yuragida ulkan azob, mehr, og‘riq, sevgi va dard yotadi. Buning dalilini esa uning she’rlarida ko‘rishimiz mumkin. Zero, Shavkat Rahmonning ham o‘z hayoti, o‘z armonlari va quvonchlari bo‘lgan. Garchi shunga qaramasdan ijodkor Vatan dardi bilan yashagan. Vatan ravnqaq uchun, xalqni uyg‘otish uchun qo‘lidan kelganicha o‘z she’rlari ila doimo olg‘a borgan. U yetmishinchi yillar oxiri saksoninchi yillar boshida yashab, ijod qilgan. Uning daslabki she’riy to‘plami – “Rangin lahzalar”(1977). Keyingi ijod namunalari “Yurak qirralari”(1981), “Ochiq kunlar”(1984), “Gullayotgan tosh”(1985), “Uyg‘oq tog‘lar”(1986), “Hulvo”(1988), “Saylanma”(1997) singari she’riy kitoblaridir.[5] Ushbu asarlaridan “Yurak qirralari” kitobidagi she’rlaridan birini tahlil qilish orqali biz uning she’rlaridagi g‘oya va o‘ziga xos usulbni ko‘ishimiz mumkin:

Bu qarovsiz gulzor ichida

Gazandalar gurkirab o‘sar,

Kunduzlari quyosh shu’lasin,

Kechalar oy yog‘dusin to‘sar. [1:25]

Bu banddan ma’lum bo‘lib turibdiki, shoir el kelajagiga dahl qilayotgan gazandalarni qoralayapti, millatni ulardan ogoh bo‘lishga chorlayapti. Alisher Navoiyning lug‘atida “gazand” so‘zi “zararli” ma’nosini bildiradi. Demak, gazandalar deganda Sh.Rahmon xalqqa zarar

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

keltiruvchi illatlar, millat boshidagilarning xalqqa qilayotgan jabr-zulmi nazarda tutiladi. Yuqoridagi band $4+5=9$ shaklida yuksalgan bo'lib, a,b,d,b tarzida qofiyalanagan. Bu baytlardagi san'atlarga to'xtalsak, “kunduzlari, kechalari” so'zlarida va “quyosh, oy” hamda “o'sar, to'sar” so'zлari tazod badiiy san'atini yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, kunduzlari, quyosh shu'lasi, kechalar, oy yog'duvsi kabi so'zlar bu o'rinda tanosub badiiy san'ati yuzaga keltiradi. Yuqoridagi baytlarda o'sar va to'sar so'zlar o'zaro qofiyadoshlik kasb etgan bo'lib, bu mutloq qofiyani vujudaga keltiradi. Bunda o's va to's so'zlariga -ar qo'shimchasi qo'shilgan, bu esa mutloq qofiya demakdir. Biz yuqorida ko'rib o'tgan baytlarimizdan ma'lumki, Shavkat Rahmonda jadidlarga ergashish ruhi aks etgan. Ya'nikim, Sh.Rahmon ham jadidlar singari xalqni uyg'onishga, o'z erki, hurligi uchun kurashishga da'vat etmoqda. Xususan, jadidlar ham she'rlarida shunday da'vtlarni ilgari surganligini ko'rishimiz mumkin:

Ko'r bizning ahvolimiz, g'aflatda qanday yotamiz,
 Joyi kelgan chog'ida vijdonni pulga sotamiz.
 O'g'limizga na odob, na fan, na yaxshi so'ylamak,
 Na xudoning buyrug'i bo'lgan ilm o'rgatamiz...
 O'rtadan chiqsa agar millatni yaxshi suyg'uvchi,
 Biz ani dahriy sanab, to'poncha bila otamiz.
 Kelingiz, yoshlar, ziyorilar, bu kun g'ayrat qiling,
 Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz. [2:137]

Ushbu Abdulla Qodiriyning yozgan bandlaridan ma'lumki, millat uyg'onmasa, o'zligini tanimasa, u, albatta, o'z mustaqilligiga erisha olmaydi. Yana shunisi ayonki, bu yerda Qodiri armon va o'kinch bilan millatni g'aflat botqog'ida yotavermasdan, agar qodir bo'lishsa, boshqalarni-da uyg'otishga chorlamoqda. Aynan shu o'rinalar, ya'ni o'lkani, xalqni o'z hurligi uchun kurashga chaqirish, uyg'otishga urinish jadidlar kabi Sh.Rahmonda ham davom etadi. Garchi Sh.Rahmon XX asr oxiri, jadidlar esa XX asr boshida yashab ijod qilgan bo'lsa ham dard bir, maqsad bir edi. Bundan tashqari, Shavkat Rahmon ham jadidlar bitgan vazn — barmoq vaznida o'z ijodini namoyish qiladi. Bundan tashqari, ikkiovida ham Yaratganni madh etish yetakchi g'oyalardan birini tashkil etadi. Jumladan A.Qodiriyya “Na xudoning buyurug'i bo'lgan ilm o'rgatamiz...”, deb yozgan misrasi va Sh.Rahmonning biz yaxshi biladigan she'ri — “Turkiylar” she'rini birinchi bandida quyidagi misra mavjud: “Turkiylar tanidi komil xudoni”, bundan ko'rinish turibdiki, XX asr boshidagi ijodkorlar(jadidlar)ni ham XX asr oxiridagi ijodkorlardan bo'lmish Shavkat Rahmonni ham yagona dard, ya'nikim, millat dardi, uning kelajagi, o'ylantirib, azoblab kelgan. Chunonchi o'zligini tanigan insongina millatni, xalqni yuksaltirishga, avvalo o'zini tanishga qodirdir. O'zini, o'zligini tanish esa Yaratganni tanishdan boshlanishi shubhasiz. Qolaversa, jadidlardan bo'lmish Abdurauf Fitratning she'rlarida ham aynan Shavkat Rahmonniki singari millatni uyg'otishga, uni hurlik va erkinlika yetaklashga, o'z mustaqilligiga erishishga bo'lgan da'vtlarni ko'rishimiz mumkin :

Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda
 Bu millatning saodatin, baxtin o'qudim.
 O'ylishingda, turishingda hamda o'zungda

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Bu yurt uchun qutulishning borlig‘in ko‘rdim.

Turma—yugur, tinma—tirish, bukilma—yuksal,

Hurkma—kirish, qo‘rqma—yopish, yo‘rilma—qo‘zg‘al. [7:39]

Yuqoridagi baylardan ma’lum bo‘lib turibdiki, jadidlar va Shavkat Rahmon bir narsani, ya’ni xalqni uyg‘otishni maqsad qilib olgan bo‘lsada, yondashuv, usul boshqa-boshqadir. To‘g‘ri, ularda shakl va mazmun bir xil yoki o‘xshash bo‘lishi, ikki tomon ham xalqqa tushunarli bo‘lsin uchun barmoq vaznida yozishi va maqsad aynan millatni uyg‘otish bo‘lishi mumkin. Ammo ularning har birida o‘ziga xoslik mavjud. Misol uchun, Shavkat Rahmon quyidagicha holda millatni uyg‘otish niyatini o‘ziga xos badiiy mahorat bilan tasvirlaydi, buni biz “Turkiylar”, deb nomlanga she’rida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi :

Bormi er yigitlar, bormi er qizlar,

Bormi gul bag‘ringda jo‘mard nolalar,

Bormi bul tufroqda o‘zligin izlab,

Osmonu falakka yetgan bolalar.

Bor bo‘lsa alarga yetkarib qo‘ying,

Bir boshga bir o‘lim demagan ermas,

Shahidlar o‘lmaydi, bir qarab tuying :

Yovga ters qaragan musulmon emas ! [4 :190,191]

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan jadidlar, jumladan, Fitratning o‘z she’rlarida, asosan, millatni uyg‘otish va hurlikka da’vat etishda muloyimlik, kelajakka umid hamda yoshlarga ishonch g‘oyalari yorqin namoyon bo‘ladi. Biz bunga yuqorida guvoh bo‘ldik. Zero Fitrat yuqoridagi she’ri orqali millatga ishonch bildirib, uni uyg‘onishga erkini egallahga chaqiradi. Biroq ayni shu mavzu, niyat, maqsad, xalqni uyg‘otish istagi ifodalangan she’rlar Shavkat Rahmonda ham bor. Lekin u ko‘proq o‘z zamonasiga bo‘lgan qarshilik, isyon hamda sharttakilik, keskinlik tarzida o‘z aksini topgan. Bunga uning ichidagi bir vulqon, alam va armon turtki bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi, albatta. Ya’nikim, Sh.Rahmon millatni uyg‘onishga chorlar ekan, xalqiga ishonch emas, aksincha achchiq iztirob bilan, da’vat qilish bilan, gina bilan, undash ohanggi bilan nido qiladi. Demakki, Sh.Rahmon ham qaysidir ma’noda jadidlarga ergashgan, ularga yondashgan, ularning izidan borgan deb aytaksak bo‘ladi va buni u o‘ziga xos qarashlari orqali bayon qiladi. Xulosa o‘rnida aytganda, Sh.Rahmonni ham jadid deb aytishimiz mumkindir. Zero u ham xalq, millat dardi ila yashagan bir jonkuyar edi.

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. Shavkat Rahmon. Yurak qirralari. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. T. :1981.
2. Saydulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. T., “Yangi asr avlod”, 2005.
3. Shavkat Rahmon, Rauf Parfi. Turkiy adabiyot durdonalari. T., “O‘zbekiston”, 2022.
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. T., “Sharq”, 1997.
5. Internet saytlari: Arboblar.uz.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

6. Rano Mullaxo‘jayeva. Tafakkur yangilanishi. T., “Muharrir”, 2019.

7. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. T., “Ma’naviyat”, 2022.